



NOGIRONLARGA NISBATAN JAMIYATNING FALSAFIY QARASHLARI.

Jabborova Manzura Madamin qizi
Guliston davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarni shaxsiy qarashlari, jamiyatning ularga bo'lgan qarashlari va bunday shaxslarni qo'llab quvvatlash, ularga yetarlicha sharoiti va imkoniyat yaratish, huquqlarini muhofaza qilish va ularga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam va ularning turlari haqida malumotlar bayon etiladi*

Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi o'rni va ularga berilayotgan etibor haqida ham alohida to'xtalib o'tiladi

Kalit so'zlar: *nogiron shaxs ta'lim-tarbiya, imkoniyat cheklangan madaniyati, ma'rifat moddiyat tarix an'ana jamiyat*

Abstract: *This article presents information about the personal views of people with disabilities, the views of society towards them, and the support of such people, the creation of sufficient conditions and opportunities for them, the protection of their rights, and the assistance provided to them by the state, and their types. The role of people with disabilities in society and the attention given to them are also discussed.*

Keywords: *disabled person, education, culture of limited opportunities, enlightenment, materiality, history, tradition, society*

Dunyoviy rivojlanish demakdir. Har bir jamiyat shu rivojlanish bosqichida shakllanib boradi va bu o'sish davrida inson manfaatlari har bir davrda birinchi o'rinda turadi. Shu qatorda nogironligi bo'lgan shaxslarni ham. "Har bir inson, shu jumadan, imkoniyati cheklangan shaxslar ham o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga haqlidir. Biz ularga yordam berishimiz kerak." Abdulaziz Komilovning va prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlarida "imkoniyatlari cheklangan shaxslar bizning jamiyatimizning ajralmas qismi.

Ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, ularni jamiyatga integratsiya qilish bizning burchimiz." degan fikrlarida ham imkoniyati cheklangan shaxslarni manfaatlarini ilgari surishgan. Jamiyatimizga nazar soladigan bo'lsak ayni vaqtda bir million nafardan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar mavjud bo'lib. Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotlarga ko'ra, qon aylanish a'zolarini kasallanishi, suyak-mushak va boshqa kasalliklari shuningdek tug'ma nuqsoni bo'lgan shaxslar bo'lib ularga kerakli malakali tibbiy yordam turlari ko'rsatilganligi ta'kidlandi.

Davlat tomonidan esa ta'lim olishlari, biznes va ilmiy g'oyalarni amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratilganligi alohida ilovalandi. Ammo davlat tomonidan ularga yordam berilib, turli imkoniyatlar yaratilayotgani e'tiborli bo'lsada jamiyatni nogironlarga nisbatan qarashlari turlicha bo'lib, bu qarashlar madaniyat va ijtimoiy normativlarga bog'liq. Ko'plab odamlar nogironlarni jamiyatning faol shaxslari sifatida qabul qilishga harakat





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



qilmoqda. Bu ularning huquqlarini himoya qilish va imkoniatlarini kengaytirishga qaratilgan. Aksariat insonlarni nogironlarga nisbatan kamsituvchi qarashlar mavjud. Bu nogironlarni “kamchilik” sifatida ko'rish va ularni qobiliyatini inkor etishdan iborat. Bular asosan nogironligi bo'lgan shaxslarni o'z ota-onalari tomonidan kichikligidayoq sodir qilinmoqda. Yaqinlari tomonidan odamlar ko'zidan yiroqda turishlari, yakkatartib holatda ta'lim olishlarini ta'minlab, tashqi dunyodan cheklashlari bunday vaziyatdagi insonlarni yoshlik chog'idan o'z qobig'idan chiqmaslikni ustun ko'rishga olib keladi.

Odamlar ichida o'zini noqulay his qilishi qisman shu sabablar orqali va yana o'zlarining ham imkoniyati cheklanganligi tufayli ongliy, mantiqiy fikrlashida o'zlarini hayot izmiga solib, shunchaki maqsadsiz yashashlari ham asos bo'la oladi. Ba'zi insonlarni ularga nisbatan achinish bilan qarashlari, o'zlaridan pas nazarda qarashlari, ular bilan bir jamoada ovqatlanishni istashmasligi afsuski achinarli hol.

Chunki bunday shaxslar avvalambor Alloh bandasi, bir ota-onaning dilbandi va shu bilan birga jamiyatning bir bo'g'inidir. Lekin shunday bo'lsada ba'zi qatlamlar ularni har tomonlama o'zlarini ko'rsatishda imkon bermaydi, ularni chetda tutishga harakat qiladi. Ularni haqoratomuz so'zlar orqali nogiron, majruh deya kamsitadi, turli xil laqablar bilan chaqiradi. Bunday hollar kopincha maktabda ularning hayotiy turmush tarzida ko'p uchraydi. Bu so'zlar nafaqat ularning jismoniy yoki aqliy holatini ifodalaydi, balki jamiyatdagi ularning o'rni va qabul qilishni ham belgilaydi. Bunday jumlar nogiron shaxslarni kamsituvchi va ularning insoniyligini inkor etuvchi tarzda ishlatiladi. Ular amalga oshmaydigan yoki foydasiz deb hisoblanishi mumkin bu esa nogiron qatlamni o'ziga xos qobiliyatlarni va imkoniyatlarni inkor etadi.

Ular bu so'zlardan foydalanib nogiron shaxslarni kuchsizligini va zaifligini ta'kidlaydilar. Nogironlarga nisbatan stereotiplar ularning qobilyatlarini, imkoniyatlari haqida noto'g'ri tushunchalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday so'zlar nafaqat bizning jamiyatimizda balki, boshqa davlatlar jamiyatida ham qoralanadi. Masalan Retarded so'zi hozirgi kunda kamsituvchi va haqoratliq deb hisoblanadi. Aqliy cheklovlar bo'lgan shaxslarni ifodalashda ishlatiladi va zamonaviy jamiyatda bunday so'zlarni ishlatilishi qoralanadi. Chunki bu insonlarning qadr-qimmatini pasaytiradi.

Bunday so'zlardan qochish va nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish muhimdir. Ular uchun “nogiron” “maxsus ehtiyojlari bo'lgan shaxs” yoki “jismoniy cheklovlar bo'lgan bo'lgan shaxs” kabi so'zlar afzalroqdir. Bu terminlar nogiron shaxslarni falsafiy qobilyatlarini va jamiyatdagi o'rnini tan olishga yordam beradi. Shuningdek bu so'zlar orqali jamiyatda inkluzivlik va hurmatni oshirishga hissa qo'shishi mumkin. Umuman olganda, nogironligi bo'lgan shaxslar bilan muloqotda bo'lganimizda ularning his tuyg'ulari va insoniyligini hurmat qilishimiz zarur. Bu nafaqat ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarga ham olib keladi. Yuqoridagi shuncha ma'lumotlarni aytsakda jamiyatni yana bir qatlam falsafiy fikrlagan holda ijtimoiy qobiliyati cheklangan shaxslarni hurmat va e'tiborga loyiq deb bilishadi. Ularning insoniy huquqlari muhim hisoblashadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Nogironlikni shaxsning jismoniy yoki ruhiy holati emas balki jamiyatning ularni qabul qilishdagi cheklavlari sifatida ko'rishlarga nisbatan qarashlari ularga munosib javob berishlari e'tiborga loyiq. Ularning teng imkoniyatli va adolatli munosabatini, imkoniyatlarini va interfratsiyasini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Ularga qo'ldan kelgancha yordam berishadi. Bunday imkoniyati chaklangan shaxslarga yordam berishlari nafaqat bizning jamiyatimizdagi insonlar orasida balkim chet elda ham ularga nisbatan iliqlik va g'amho'rlik bilan qarashadi.

Bunga Germaniyani oladigan bo'lsak nogironlarga ijtimoiy integratsiya, ishga joylashtirish imkoniyatlarini ta'lim olishlarin taminlashadi. Jamoa qatlamlari esa ularni tushunish, empatiya yuqori darajada. Insonlari ular bilan ishlashga tayyor. Yaponiyada ham xuddi shunday nogironlar uchun maxsus qonunlar yaratishgan, bu qonunlar ularning huquqlarini himoya qiladigan va faolligini taminlashga qaratilgan turlaridan biriga bo'lib yaponiya jamiyati nogironlarni yuqori darajada ko'radi. Yaponiyada nogiron odamlarga soat so'vg'a qilish odobga to'g'ri kelmaydi, chunki soatlar vaqtni belgilaydi va hayotning cheklanganligini eslatadigan predment sifatida qabul qilinadi. Bu yapon jamiyatida vaqtning qadri va inson hayotining nozikligini anglatadi.

Soat sovg'a qilish nogironlik holatin yomonlashishi ga olib kelishi mumkin yoki ularning ruhiy holtini yomonlashtirish ehtimoli bor. Bunday holatlar bo'lmasligi uchun yapon jamiyati axloqlarga hurmat bilan yondashadilar va bunday narsalar orqali ranjitib qo'ymaslikka harakat qilishadi. Yana ularda nogiron ayollarga gullar berish odatiy emas. hisoblanadi. Chunki gul yoshlik, nuqsonsizlikning aksi, navqironlik ramzi. Bu an'analar yapon madaniyatining nozik va chuqur ma'nolari bilan bog'liq. Gullarning go'zalligi yangilik, hayotning yangi bosqichlariga kirishni anglatadi, shuning uchun nogironlik holatidagi insonlarga bunday hadiyalar berilishi, ularning holatini yomonlashtirish yoki noqulaylik tug'dirishi mumkin. Yaponlar buni hisobga olgan holda gul o'rniga nogiron ayollarga mehr- muhabbat va qo'llab-quvvatlashni ifodalovchi boshqa sovg'alarni berishni ma'qul ko'rishadi. O'z navbatida insoniy aloqalarni mustahkamlash, ruhiy holatini yahshilashga yordam berdi. Bu yuqoridagi holatlar tarixda ham mavjud bo'lib, bunda dastlab ibtidoiy jamoa tuzulmalarida ro'y bergan.

Qabila boshliqlari ularni iqtisodiy yuk deya bilgan va ko'chib yurishganliklari uchun qabiladan chiqarib yuborishgan. Shundan so'ng asta sekin rivojlanish davrida ularni yo'q qilish darajasiga borganlar. O'rta asrlarda esa nogironlar yakkalashtirish va surgun qilish holatlari avj ola boshladi. Shu asrlarni oxirida esa ularning hayoti bir muncha ijobiy shakllana boshladi. Ular uchun maxsus shifoxonalar ochilib sog'liqlari muhfaza qilishsa bu shifoxonalarga yana og'ir hastalikka chalingan be'morlarni ham olib kelishar edi. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari davrida nogironlar jangda qatnasha olishmagan, ularni xat tashuvchi va boshqa ishlar bilan mashg'ul qilishgan. Asosan bu ikkinchi jahon urushida shakllangan bo'lib bundan maqsad nogiron shaxslardan ham unumli foydalanish edi. Nogironlarga bu vazifalarni bajarish jismoniy, ruhiy qiyinchilik tug'dirgan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Chunki front ortidan kelgan “qora” xatlarni egalariga topshirish jarayonida xat olganlar tomonidan tahqirlanishga va jismoniy zulumba duch kelishar edi. “Ilxaq” nomli badiiy filimidagi ba’zi personaj va kadrlar buni ochib bera olgan. Xulosa qilib aytganda jamiyatimizning noqironlarga nisbatan ijobiy va salbiy jihatdan qaralishi, ularning qobiliyatlari, ehtiyojlari jamiyatda sodir bo’lgan munosabati bilan bog’liq. Ularni qo’llab-quvvatlash va inkluzif muhit yaratish. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash muhimdir. Boshqacha qilib aytganda nogironlik bu jamiyatda mavjud bo’lgan jismoniy, aqliy, ruhiy xususiyatlarga ega bo’lgan shaxsdir. Bunday odamlar hayotning turli sohalarda cheklangan bo’lsalarda, qalb chegaralari cheksizdir. Shuning uchun nogironlik ijtimoiy tengsizlik bir ko’rinishidir. Shunday qilib nogironligi bo’lgan shaxslarning e’tirof etish va ularga yordam berish ijtimoiy taraqqiyotning muhim qismidir, ammo befarqlik va beintizoml holarlarini bartaraf etish uchun jamiyatda ongliy o’zgarishlar ta’lim va tarbiya jarayonini kuchaytirish zarur. Faqat shunday qilib, nogironligi bo’lgan shaxslarni haqiqatdan ham teng huquqli va faol jamiyat a’zolari bo’lishi mumkin.

Bunday yondashuv nogironlar uchun balki jamiyat uchun ham foydali bo’ladi. Nogironlarga yordam berish orqali jamiyat birlashuvini kuchaytiradi, ularning ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi va ularning o’z-o’zini anglashlariga yordam beradi. Bu esa o’z navbatida jamiyatda befarqlikni kamaytiradi va nogironlarni haq-huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Nogironlarni imkoniyatlarini rivojlantirishga, maqsadlariga erishishiga va jamiyatdagi o’rnini topishga yordam beradi. Shu kabi yondashuv ijtimoiy adolatni va tenglikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo’lib, jamiyatni yanada barqarorligi va rivojlanishiga yordam beradi. Shu sababli nogironlikka nisbatan e’tibor va yordam ko’rsatish har birimizning burchumizdir va bu jarayonning rivojlantirish uchun harakat qilishimiz zarur. Bu nafaqat nogironlar, balkim butun jamiyat uchun foydali va muhim. Immanuel Kant nemis faylasufi va g’arb falsafasining mashhur vakil “insonning haqiqiy o’lcho’vi, uning nogironlarga nisbatan munosabatidadir” deya ta’kidlagani yuqoridagi fikirlarning yana bir dalili bo’la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davron o’g’li, A. D. (2025). O ‘RTA OSIYO KO ‘CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O ‘RGANILISHI. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(8), 100-113.
2. Yaqubjonovich, I. M., Davron o’g’li, A. D., & Hoshimjon o’g’li, R. I. (2025). INNOVATSION TARAQQIYOT DAVR TALABI. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 2(22), 1-5.
3. Yaqubjonovich, I. M., Davron o’g’li, A. D., & Hoshimjon o’g’li, R. I. (2025). G ‘ARBDA INDUSTRIAL SIVILIZATSIYANI SHAKLLANISHI TARIXIDAN. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 2(22), 6-11.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



4. Alijon o'g'li, T. J., & Davron o'g'li, A. D. (2025). " TAFAKKUR VA MAVJUDLIK: ODAMNING ICHKI OLAMI HAQIDA. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 1189-1198.
5. Alijon o'g'li, T. J., & Davron o'g'li, A. D. (2025). INSON VA BORLIQ: FALSAFIY YONDASHUV. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 1179-1188.
6. Davron o'g'li, A. D. (2025). O 'ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI VA UNING BOSQICHLAR. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 3(5), 457-461.
7. Davron o'g'li, A. D. (2025). INSON, ONG VA BORLIQ: FALSAFIY YONDASHUV. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 3(5), 462-467.
8. Vildanovich, G. S., & Davron o'g'li, A. D. (2025). MARKAZIY OSIYO XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA (1992–2009): MINTAQAVIY TIZIM OSTINING SHAKLLANISHI VA EVOLYUTSIYASI. YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI, 1(2), 338-341.
9. Davron o'g'li, A. D. (2025). O 'RTA ASRLARDA SHARQ MUTAFKKIRLARINING BORLIQ HAQIDAGI TA'LIMOTI: BERUNIY ONTOLOGIYASI. YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI, 1(2), 358-360.
10. Davron O'g'li, A. D. (2025). ILK O 'RTA ASRLAR DAVRI YOZMA VA ARXEOLOGIK MANBALARIDA USTRUSHONA. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(51), 606-612.
11. Davron O'g'li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(51), 600-605.
12. Davron O'g'li, A. D. (2025). ILK O 'RTA ASRLARDA USTRUSHONADAGI SIYOSIY HOLAT. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(51), 613-619.
13. Zilola, A., Ismoil, R., & Dilshod, A. (2025). MISRDAGI SUV OSTI ARXELOGIYASI TADQIQOTLARIDAN. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 192-202.
14. Ismoil, R., Dilshod, A., & Zilola, A. (2025). O 'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TINCHLIKPARVARLIK TAMOYILLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 203-214.
15. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O 'ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO 'NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 90-101.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



16. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O 'ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 11-27.

17. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 28-41.

18. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 47-53.

